

## QUYI SINIF AQLI ZAIF O'QUVCHILARIDA TA'LIM OLISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

**Sapayeva Dilnoza Ibrohim qizi**

*Ijtimoiy Himoya Milliy Agentligi 87-Alohida Ta'lim Ehtiyojlari Bo'lgan Bolalar  
Uchun maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aqli zaif bolalarga ta'limni tashkil etish va ularni ijtimoiy xayotga moslashtirishning o'ziga xos jixatlari ochib berilgan. Shuningdek, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni integratsiyalashuvi va ijtimoiylashuvi jarayonlarini optimallashtirish va shu maqsadda o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etishni ta'minlash masalalari ko'rilgan.

**Tayanch so'zlar:** inklyuziv ta'lim, pedagogika, psixologiya, ijtimoiylashuv, psixokorreksiya.

**Аннотация:** в данной статье раскрываются особенности организации обучения умственно отсталых детей и их адаптации к социальной жизни. Также рассматриваются вопросы оптимизации процессов интеграции и социализации детей с нарушениями интеллектуального развития и обеспечения надлежащей организации образовательного процесса с этой целью.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, педагогика, психология, социализация, психокоррекция.

**Abstract:** this article reveals the peculiarities of the organization of education of mentally retarded children and their adaptation to social life. The issues of optimization of the processes of integration and socialization of children with intellectual developmental disorders and ensuring the proper organization of the educational process for this purpose are also considered.

**Key words:** inclusive education, pedagogy, psychology, socialization, psychocorrection.

Bugungi kunda defektologlar oldida turgan muhim vazifalardan biri quyi sinf aqli zaif o'quvchilarni korreksion va rivojlantiruvchi ta'lim usul va vositalarining psixologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarning aniq yo'llarini nazariy asoslagan holda o'rganishni taqazo etadi. Bu dolzarb muammolar yechimini topish o'quv jarayonida aqli zaif o'quvchilarning o'quv faoliyati uchun ularning psixikasini shakllantirish va rivojlantirish usullarini va vositalarini izlash hamda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimining asosiy strategiyasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, olimlar, metodist mutaxassislardan shaxsiy potentsialga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik motivatsiya usullari ustida ishlashni talab qilmoqda. Bu esa bevosita ta'limning pedagogik-psixologik yondashuvlar aqli zaif bolaning ta'lim jarayoniga ro'yobga

chiqarishni ta'minlaydigan tuzatish va rivojlantiruvchi ta'limning psixologik-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga ijodiy yondashishni talab qiladi.

Quyi sinf aqli zaif o'quvchilarning psixologiyasi bilan bog'liq masalalar horijlik olimlardan N.Yu.Boryakova, T.N. Volkovskaya, I.Yu. Levchenko, I.I. Mamanchuklarning ishlarida ko'rishimiz mumkin. O'quv faoliyatini tavsiflashda asosiy narsa uning pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni amalga oshirilishidir. Pedagogikada aqliy harakatlar umumiy aqliy qobiliyatlar bilan bog'liq. Ta'lim jarayoni o'quvchilarni maktab sharoitlariga moslashtirish zarurati bilan bog'liq holda, ular amalga oshirilayotgan sharoitlarga muvofiq harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik va qobiliyat kabi umumiy intellektual qobiliyatlar alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni hamda "Alohida ta'lim ehtiyojiga munosib ko'rilgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni dolzarb masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va aqli zaif bolalarning kognitiv faoliyati xususiyatlarini o'rganish jarayonida quyidagi mutanosiblik o'zini namoyon qiladi: Umumiy intellektual qobiliyatlar masalalari maxsus va umumiy pedagogikada ko'plab mualliflar tomonidan turli jihatlarida ko'rib chiqilganiga qaramay, aqli zaif bolalarning maktabgacha yoshdan maktab yoshiga o'tish davrida ushbu ko'nikmalarni shakllantirish muammosi aniqlandi. ko'rsatilgandek, yetarli darajada rivojlanmagan. Psixologiyada faollik yondashuvi doirasida (A.N.Leontiyev, S.L.Rubinshteyn), shaxsni shakllantirish kontsepsiyasi L.I. Bojovich, shuningdek, gumanistik psixologiya vakillari (A.Maslou), motivatsion soha shaxsning o'zagi sifatida qaraladi. Motivatsiya, yo'nalish va ma'noni shakllantirish funktsiyalariga ega bo'lgan motivatsiya (A.N. Leont'ev) faoliyat va xatti-harakatlar tarkibida boshlang'ich bo'g'inga aylanadi. Tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ta'lim motivatsiyasi an'anaviy ravishda ta'lim faoliyati kontekstida o'rganiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv faoliyati etakchi hisoblanadi. O'rganish jarayonida bola, bir tomondan, umumlashtirilgan inson tajribasini o'rganishi mumkin bo'lgan vositalarni o'rganadi. Boshqa tomondan, ta'lim faoliyati jarayonida bola ma'lum ijtimoiy munosabatlarga (o'qituvchi, tengdoshlar bilan o'zaro munosabat) kiradi, ularning muvaffaqiyati ham asosan ta'lim natijalarini oldindan belgilaydi.

Shu munosabat bilan, o'qituvchilarning aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni integratsiyalashuvi va ijtimoiylashuvi jarayonlarini optimallashtirish va shu maqsadda o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, bolalar tomonidan bilimlarni ongli

ravishda o'zlashtirishni ta'minlash, o'zlashtirishni ochib berish istagi o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ularning shaxsiy salohiyati va o'rganish psixologiyalarini shakllantirish omillari, aqliy zaif quyi sinf o'quvchilarining o'quv jarayoniga ijobiy munosabatini shakllantirish uchun psixokorreksiya ishlarining imkoniyatlari va resurslari to'g'risidagi savolning yetarli darajada rivojlanmaganligini ochib beradi.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi, ya'ni ijtimoiy sohani rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, sohalarini rivojlantirish, xususan, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, sog'lom avlodni voyaga yetkazish, shuningdek, ularni zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, XXI asr talablariga javob beradigan barkamol, yetuk shaxslar bo'lib yetishishi uchun zarur bo'lgan imkoniyat va sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu masala nogiron bolalar tarbiyasiga, xayotga ijtimoiy moslashuviga ham ta'luqlidir.

“Ta'lim to'g'risidagi Qonun”da o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs bo'lib yetishishlari muhim vazifa sifatida belgilanadi. Xususan, mazkur hujjatning 11 moddasida ushbu masalaga quyidagicha yondoshiladi: «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi», bu esa maktabgacha ta'lim muassasasiga murakkab va ayni damda muhim vazifani yuklaydi. Shu ma'noda, birinchi Prezident Islom Karimovning xalqimizning siyosiy tafakkur xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi barchamizni hozirgi o'ta notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sergak bo'lib yashashga da'vat etadi. Shu asosda “Vatanimizning yangi tarixini chuqur anglab, undan zarur saboq va xulosalar chiqarib, yurtimizning qadimiy shuhrati, bugungi qudrati va salohiyati, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib bo'lib yashashga o'rgatadi”.

Davlatimiz Konstitutsiyasining 41-moddasida belgilanganidek, «har kim ta'lim olish huquqiga ega». Ushbu huquq “Ta'lim to'g'risidagi Qonun”ning 23 hamda 24-moddalarida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar nuqtayi nazaridan ham kafolatlangan. Hozirda davlatimiz, prezidentimiz tomonidan alohida yordamga muhtoj insonlarga ko'rsatilayotgan e'tiborning kuchaytirilishi, hamda ularning ijtimoiy hayotga samarali adaptatsiyalashuvini ta'minlash masalasi dolzarb muammo sifatida butun respublikamizda, hamda dunyoda faoliyat ko'rsatayotgan tadqiqotchi, amaliyotchi mutaxassislar oldida gavdalanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PFnida ham O'zbekiston Respublikasida oliy

ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan va "imkoniyati cheklanganlikning oldini olish, ularni bartaraf etish bilan bir paytda ularni ijtimoiy realitatsiya qilish, ularning ishlash muhitini sog'lomlashtirish, maxsus korreksion ishlar olib borish orqali ulardagi nuqsonlarni korrektsiyalash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish va tayyorlash kabi murakkab, ammo savobli ishni amalga oshirish hozirgi zamon talabidir" deb alohida band ajratilgan. Yuqoridagilarning barchasi hozirgi kunning muhim va dolzarb ekanligini belgilaydi.

Ma'lumki, quyi sinf aqli zaif o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayoni jismoniy va intellektual salohiyatni talab etadi. Zero, quyi sinf aqli zaif o'quvchilar psixologiyasini rivojlantirishida qator to'siqlarni keltirib chiqarishi tayin. Ammo, aqli zaif o'quvchining psixologiyasi, jismoniy va intellektual salomatligi, uning psixologik kechinmalari nutqining benuqson bo'lishining muayyan talab etilishi alohida ehtiyojli bolalar ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni egallay olmaydilar degan fikrni tug'dirmasligi lozim. O'ziga xos ravishda, ammo rivojlanayotgan bola boshlang'ich savod zahiralarini egallash imkoniyatiga ega. Jumladan tadqiqotimiz sababchilari bo'lmish quyi sinf aqli zaif o'quvchilar ham bundan mustasno emaslar. Quyi sinf aqli zaif o'quvchilardagi psixologik kamchiliklar, harakat tizimidagi keskin buzilishlar ruhiyatidagi kechinmalar ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Bu muammo o'z o'rnida yana qator muammolar yigindisini (nutqiy, pedagogik-psixologik, ijtimoiy, intellektual va hokazo...) hosil etmoqdaki, ular o'z o'rnida ushbu to'siqlar yechimini bir emas balki, bir qancha aspektlar holatini ijobiy rivojlantirilishini talab etadi. Mazkur sohaning turliolimlaridan, xususan K.A.Semenova, Ye.M.Mastyukova, M.V.Ippolitova, R.D.Babenkova, N.V.Simonova, E.S.Kalijnyuk Sh.O.Levchenko, V.Kuznetsovalarning fikricha, bu bolalarda bilish faoliyatini shakllantirishdagi qiyinchiliklar motorika hamda grafik ko'nikmalarni egallashdagi qiyinchiliklar tashkil etadi. Ammo, bu qiyinchiliklarning xususiy ko'rinishi qanday ko'rinishda ekanligi, quyi sinf aqli zaif o'quvchilar qanday hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalar zahirasiga ega bo'lishi lozim, ularni hosil qilishda qanday qiyinchiliklar, ularni bartaraf etishdagi korreksion ta'sir yo'nalishi, mazmun hamda maqsadi nimalardan iborat bo'lishi mavzusi doirasi kam o'rganilib, yetarli darajada tadqiq etilmaganligi tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Xulosa o'rnida shularni aytish mumkinki, psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarining qonun hujjatlarida aks ettirilishi borasida davlatimiz tomonidan talaygina ishlar amalga oshirilmoqda.

Galdagi vazifalar, uni uzluksiz davom ettirish va hozircha hal qilinmagan muammolarni bartaraf ettirib respublikamiz nogiron bolalarning ta'lim olishga bo'lgan

huquqlarini amalga oshirish borasida jahon stanlartlari tomon ishonch bilan qadam qo'yishdir.

#### ADABIYOTLAR:

1. Мўминова Л.Р., Амирсайдova Ш.М., Мамаражабова З.Н., Хамидова М.У., Якубжанова Д.Б., Джалолова З.М., Абидова Н.З. “Махсус психология”: ўқув қўлланма / Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2013.
2. Пўлатова П.М., Нурмухаммедова Л.Ш., Якубжанова Д.Ж., Мамаражабова З.Н., АмирсайдovaШ.М., Султонова А.Д. “Махсус педагогика” (Дарслик).-Т.:”Фан ва технология”, 2014.
3. Петрова Б., Белякова И.В. Психология умственно отсталых школьников. М.Академия-2004
4. Мўминова Л, Амирсайдova Ш. Хамидова М, Джалолова, Абидова Н. “Махсус психология”. Дарслик Т.: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2013
3. 5. Агавелян О.К. Ривожланишида бузилиш бўлган болаларнинг ижтимоийпертсептив хусусия